

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 191 (1252), 2024-yil 19-sentabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ROSSIYA FEDERATSIYASI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-sentabr kuni Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosari Vitaliy Savelyev, Rossiya Prezidenti maslahatchisi Igor Levitin va "Российские железные дороги" kompaniyasi boshqaruvi raisi Oleg Belozorovdan iborat delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Rossiya delegatsiyasi a'zolari davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Joriy yilning 26-28-may kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan oliy

darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Mintaqada samarali transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko'rishga alohida e'tibor qaratildi.

Transport sohasida sanoat kooperatsiyasi loyihalarini jadallashirish, avtomobil, temir yo'l va aviatsiya yo'nalishlarida sheriklikni yanada kengaytirish, yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlash muhimligi qayd etildi.

O'zA

## Buyuk o'zbek yo'li

## HOZIRGI ZAMON: YANGI O'ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR FALSAFASI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z faoliyatini boshlaganidan buyon o'tgan qisqa davr ichida yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi, bir qator kodeks va qonunlar, milliy strategiya va davlat dasturlarini qabul qilish tashabbuslarini ilgari surdi. Davlatimiz rahbari, shuningdek, yangi O'zbekistonda barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini tiklashga qaratilgan ko'plab farmon, qaror va farmoyishlarni imzoladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hayotining barcha sohalariga izchillik bilan joriy etilayotgan ana shu ko'lamdor, muhim va dolzarb huquqiy asoslarni yaratishning tub siyosiy-nazariy mohiyati O'zbekiston Prezidentining kitoblari, dasturiy ma'ruza va nutqlarida batafsil bayon etilgan. Shunday fundamental asarlardan biri — "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobi 2022-yilda chop etilgan bo'lsa, 2024-yilda "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" nomli navbatdagi salmoqli siyosiy asar nashrdan chiqdi.

Davomi 3-betda



## Nuqtayi nazar

## MUNTAZAMLIK KASB ETGAN MULOQOT

### O'ZBEKISTON VA GERMANIYA O'RTASIDAGI ALOQALAR NIMASI BILAN AJRALIB TURADI?

O'zbekiston yuritayotgan tashqi siyosatning pirovard maqsadi aholi farovonligini ta'minlash, turmush tarzini yaxshilash, mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish hamda rivojlangan davlatlar qatoridagi o'rnini mustahkamlashdir.



Bu borada Prezidentimizning xorijiy davlatlarga qilayotgan tashriflari, xorijiy davlat rahbarlarining yurtimizga kelib, yaqindan hamkorlik qilishga tayyorligini bildirayotgani diqqatga sazovor.

So'nggi yillarda mamlakatimizda har tomonlama chuqur o'yab yuritilayotgan tashqi siyosat, iqtisodiy diplomatiyaning natijalari nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda o'z aksini topmoqda.

Davomi 2-betda

## Qaror va ijro

## "XOTIN-QIZLAR.UZ" PLATFORMASI

### AYOLLAR MUAMMOLARINI O'RGANISH VA TIZIMLI HAL ETISHNING SAMARALI MEXANIZMI

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta'minlangan jamiyatda tinchlik, adolat, erkinlik va farovonlik bo'ladi.

Shu bois, mamlakatimizdagi islohotlar jarayonida oila institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, jamiyat va davlat ishlari boshqaruvida ularning teng

ishtirokini ta'minlash, shuningdek, tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davomi 2-betda

## TO'RTINCHI UCHRASHUVDA BELGILANGAN VAZIFALAR

### IJROSI QANDAY AMALGA OSHIRILMOQDA?



## Tahlil

Davlatimiz rahbari joriy yil 7-sentabrda "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Unga muvofiq, kichik biznes vakillarini uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida qator yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda.



— Jumladan, shu paytgacha garovsiz taqdim etilayotgan kreditlar riski tijorat banklari bo'yida qolayotgan edi, — deydi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati bo'lim boshlig'i Burhon Normirzayev. — Qaror bilan o'sha risk davlat tomonidan taqsimlandi. Ya'ni bir qismi davlat, bir qismi tadbirkor zimmasida qoladigan bo'ldi. Ajratiladigan mablag' miqdori ham 300 million so'mgacha oshirildi. Bundan maqsad kredit beruvchilar oldidagi tavakkalchilikni kamaytirish orqali ulami qo'llab-quvvatlashdir.

Aslida, hech bir moliya tashkiloti garovsiz kredit berishni xohlamaydi. Lekin uning riski taqsimlangan bo'lsa yoki kimdir uni bo'yniga olsa, kredit beruvchilar soni ko'payadi. Shu bois, mazkur amaliyot barcha tijorat banklari va mikromoliyaviy tashkilotlar qiziqishini oshiradi.

Davomi 4-betda

## Ta'lim taraqqiyoti

## XALQAROLASHUV VA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

### NUFUZLI REYTINGLAR PILLAPOYASIDIR

Mamlakatimizda inson kapitaliga e'tibor ustuvor masalalardan biri. Bu O'zbekiston kelajagini belgilovchi ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash bo'yicha faoliyatini muntazam rivojlantirib borishni taqozo etadi. Yangilanayotgan O'zbekistonimizda oliy ta'limda ham xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish bo'yicha vazifalar belgilangan. Oliy ta'lim transformatsiyasi bo'yicha bir qator masalalar ijrosini kutmoqda. Bu yo'nalishda ilg'or universitetlarimiz ishlarni allaqachon boshlab yuborgan.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida ko'plab vazifalar qatori aynan ta'limga tegishli ishlarning alohida o'rin egallagan, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishdan tortib, oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash kabi qator muhim vazifalar ham belgilangan yangi rejalar va dasturlar asosida ishlashni taqozo etmoqda. Shuningdek, Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida ko'rsatilgan vazifalar aniq yo'nalishlar bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirish zarurligi dolzarb masaladir. Barcha faoliyatimiz shunga qaratilgan. Ammo tezkor axborot almashinuvi davrida har kuni yangi qarashlar, yangi chaqiriqlar ko'rinmoqda.

Davomi 5-betda

## Zamondosh

## FAN DARAJASIGA KO'TARILGAN SAN'AT SOHIBI

yoxud O'zbekiston Badiiy  
ijodkorlar uyushmasi a'zosi,  
xattot Habibullo Soliyevning  
sabr mevasi

6











